

## AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi (19.11.2024 y.)

AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi **2024-yil 19-noyabr kuni, soat 10:00** da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali o'tkazildi.

Yig'ilishga bank Kuzatuv kengashi Raisi Sh.Shermatov raislik qildi. Yig'ilishda bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari, Bosh bankning departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari ishtirok etdi.

### Yig'ilishda quyidagi masalalar kun tartibiga qo'yildi:

1. AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. AT «Aloqabank»ning aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lash.
3. «AT «Aloqabank»ning 2024-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi»ni tasdiqlash.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar soni **7 084** ta, ularga tegishli bo'lgan jami ovoz beruvchi aksiyalar soni **2 015 794 084 170** donadan iborat.

Elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali ro'yxatdan o'tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar soni **1 855 450 408 825** tani tashkil etdi. Ro'yxatdan o'tkazilgan ovoz beruvchi aksiyalar jami ovoz beruvchi aksiyalarning **92,05** foizini tashkil etdi.

Umumiy yig'ilish o'tkazish uchun kvorum mavjud deb hisoblandi.

Kun tartibiga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish natijalari quyidagi jadvalda berilmoqda:

| Kun tartibi masala                                                                                | Yoqlagan                 |               | Qarshi       |      | Betaraf      |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|---------------|--------------|------|--------------|------|
|                                                                                                   | ovozlar soni             | foiz          | ovozlar soni | foiz | ovozlar soni | foiz |
| 1. AT «Aloqabank» aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash. | <b>1 855 450 408 825</b> | <b>100.00</b> | -            | -    | -            | -    |
| 2. AT «Aloqabank»ning aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lash                                     | <b>1 855 450 408 825</b> | <b>100.00</b> | -            | -    | -            | -    |
| 3. «AT «Aloqabank»ning 2024-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi»ni tasdiqlash    | <b>1 855 450 408 825</b> | <b>100.00</b> | -            | -    | -            | -    |